

## ONOMASTIKA BO‘LIMINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA‘LIM TEKNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

**M.R. Hamroyeva**  
BuxDU o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion ta‘lim texnologiyalarining ta‘lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati va o‘quvchilarning ma‘naviyatida ona tilimizning boy imkoniyatlaridan foydalanib, ularni teran ahloqli va tilimizdagi so‘zlarda, jumladan, onomastik birliklardan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish masalalarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** onomastika, innovatsiya, antroponim, texnologiya, millat, til, texnika, savodxonlik, indikator, tarbiya, ta‘lim.

Ma‘lumki, fan va texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta‘minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo‘lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta‘lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko‘lamining ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan davrda ta‘lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ammo ko‘plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta‘lim jarayonlariga o‘qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo‘lmaydi.

Oliy pedagogik ta‘lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo‘ljak o‘qituvchining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo‘lishi ma‘lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta‘lim jarayonida yangiliklardan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog‘liqdir.

O‘zbek tili bugungi kunda o‘zbek millatining fikr almashuv quroli sifatida katta ijtimoiy vazifa ado etmoqda. Bu millat vakillarining ijtimoiy aloqasini to‘liq ta‘minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilida O‘zbekistonda yashovchi xalqlarning tarixini, bugungi fidokorona mehnatini ulug‘lovchi yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratilgan va yaratilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, ona tilimiz o‘zbek xalqining har jihatdan kamol topishi va taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilining bugungi taraqqiyotiga tilshunos olimlarimiz, yozuvchilarimiz, shoirlarimizning xizmatlari beqiyos. Ularning katta mehnatlari tufayli o‘zbek tilining ko‘pchilik sohalarida qat‘iy normalar belgilanadi, til birliklarining aloqa jarayonidagi lisoniy namunalarini tafsiya etiladi. Til taraqqiyotidagi ko‘pgina masalalar ilmiy-nazariy asosga qo‘yildi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tilimiz leksikasini, uning grammatik qurilishini yanada chuqurroq va har tomonlama tadqiq qilish vazifasini qo‘ydi. Inson nimadan xabardor ekan, nimani ko‘rgan va bilgan ekan, u kishilarning birdan bir aloqa aralashuvi quroli

bo'lgan o'z tilida ifodasini topgan. Tilimizdagi nomlar o'zi anglatayotgan tushunchaning xarakteri, narsalarning atalishidagi xususiyati va belgilariga ko'ra farqlanadi.

Tildagi atoqli otlarning katta bir guruhini kishilarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Grekcha antropos-odam, inson, nomos-ot, ism, nom aniqlanishi demakdir.[1]

Atoqli otlar xuddi boshqa so'zlar singari tildagi qadimiy hodisalardandir. Buni insoniyatning qadimiy o'tmishiga oid xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma yodgorliklar tilida saqlanib qolgan kishi nomlari, afsonaviy va mifologik qahramonlarning nomlari yaqqol ko'rsatadi.

Kishiga ism berish va kishilarning atoqli otlari qadimiy tarixga ega bo'lib, bolani nomlashda ma'lum tarixiy davr, iqtisodiy-siyosiy hayot, ma'naviy turmush doirasining turli-tuman urf-odatlarini muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, diniy tasavvurlar bolalarning nomlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Turkiy xalqlarning V-VII asrlar tarixini o'zida ifodalagan O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matnlarida uchrovchi bir qator ismlar: Burisangmusht, Oqbosh, Qoraxon, Qorakur, Kultegin, Bilkaxoqon, Eltarish, To'nyuquq va boshqalar turkiy xalqlarning eng qadimgi antropoleksemalaridir. Davrlar o'tishi bilan bir qator ismlar eskiradi va iste'moldan chiqadi, ularning o'rniga yangi-yangi atoqli otlar kirib keladi. Kishilarning orzu-umidlari, intilish va ideallari bilan bog'liq ismlar uzoq yashaydi. Hozirgi davr kishilari ismlarining asosiy qismini ana shunday nomlar tashkil qiladi.

Shaxsga qo'yilgan nomlarda ota-onaning orzu-umidi (Baxtiyor, Umid, Go'zal), bolaning tashqi belgisi (Xoldor, Anor, Qovoqvoy), xalqning urf-odati (O'roqvoy, Teshavoy), tug'ilgan kuni (Odina, Jumavoy) o'z aksini topadi. Antroponimlar turdosh otlar asosida (Muhabbat, Lola, Juma, Sulton, Bahri), sifatlar asosida (Go'zal, Muqaddas, Ozoda, Botir, Jasur), sonlar asosida (Oltmishvoy, Yetmishvoy, Chori, Panji), fe'llar asosida (Tursunoy, To'xtasi, Turdi) paydo bo'lgan.

Shuningdek, jamiyatda ismiga nomunosib shaxslar ham uchraydi, albatta. Badiiy asarlarda ham mana shunday obrazlarni ko'rishimiz mumkin: Masalan, T.Malikning "Qarg'ish" hikoyasidagi Rahima obrazi orqali esa shuni ko'rsatadi va bunga o'zi ham alohida urg'u beradi:

*"Bu xotinning ismi jismiga, ayniqsa, ruhiga mos emas, "Rahima" atalgani bilan qalbida rahm-shavqat ozroq edi".[2]*

Til lug'at sostavining ajralmas bir qismi hisoblangan antroponimlar morfologik va sintaktik jihatdan ma'lum til normalariga, qonun-qoidalariga bo'ysunadilar. Ammo ular qolgan turdosh otlardan konkret shaxs-individual odamni boshqa ko'pchilik odamlardan ajratish bilan farq qiladilar.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari esa ta'lim oluvchi ichki imkoniyatlarini namoyon qilishi, rivojlantirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bunda ta'lim oluvchilarning o'zlarini o'quv faoliyatining subyekti sifatida his qilishlari, o'z ustida ishlashlari, o'z-o'zini rivojlantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda kelajakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. Aslida har bir o'qituvchi ijodkor, har bir o'tilgan dars uning betakror ijodining mahsuli bo'lishi kerak. Buning uchun pedagogik texnologiyalarni samarali usullarini qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishlik taqozo etiladi.

Muammoli tahlil matnlarni o'rganishda eng qulay texnologiyalardan hisoblanadi. Ular mumtoz matnlarni qiyosiy tahlil qilish, matn bilan ishlashda o'qituvchi va o'quvchi munosabatini tiklashda qulayliklar beradi.

Grafikli organayzerlarning o'ziga xos afzalligi shundaki, u o'quvchi (talaba)lar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilangan vaqt oralig'ida o'rganilayotgan mavzu bo'yicha axborotlarni yig'ish va tadqiq qilishni ta'minlashga xizmat qiladi. Grafikli organayzerlarni o'quvchilarda matnni tizimli tahlil qilish orqali ilmiy xulosalarga kelishning eng samarali usullari sifatida baholash mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, innovatsion ta'lim texnologiyalarini matn bilan ishlash jarayonida qo'llash dars samaradorligini oshirib, talabalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E.A. O'zbek tili antroponimikasi. "Fan" nashriyoti. T.: 2013. B.264. 10-bet.
2. Тоҳир Малик. "Падаркуш". Davr press. T.: 2014. B.163. 110-bet
3. Hamroyeva, R. M. (2021). Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story "Devona"). *Middle European Scientific Bulletin*, 8.
4. Rasulovna, H. M. (2021). Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories. *Journal of Contemporary*.
5. Rasulovna, H. M. (2021). Anthroponymic forms in the text of artistic work (On the example of Tahir Malik's work). *Middle European Scientific Bulletin*, 10.
6. Rasulovna, H. M. THE LITERARY OF ANTHROPONYMS. *Chief Editor*.
7. Rasulovna, H. M. (2022). TOHIR MALIKNING ASARLARIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR QOLLANILISHINING USLUBIY TAHLILI. *БАРҚАРОРЛИК ВА ҲЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(4), 391-398.
8. HAMROYEVA, M. (2021). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

WORDLY  
KNOWLEDGE